



УДК: 327 (575.1+47+73)

Jasur AXMEDOV

Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitati o'qituvchisi, PhD

E-mail: jasur.ahmedov2212@gmail.com

Rewiew PhD Isanova Gulbahor

MINTAQAVIY VA GLOBAL MUAMMOLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSATI

Аннотация

Mazkur maqolada mintaqaviy va global muammolar sharoitida O'zbekistonning tashqi siyosati tahlil qilinadi. Unda mamlakatning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy o'rni, xalqaro hamkorlikdagi ustuvor yo'nalishlari hamda barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslari yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston tashqi siyosatining mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy integratsiya va global chaqiriqlarga javob berishdagi o'rni ham ilmiy nuqtai nazardan baholanadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Rossiya, Xitoy, AQSh, tashqi siyosat, mintaqaviy xavfsizlik, global muammolar, Markaziy Osiyo, xalqaro hamkorlik.

ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЕГИОНАЛЬНЫХ И ГЛОБАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ

Аннотация

В статье рассматривается внешняя политика Узбекистана в условиях региональных и глобальных проблем. Анализируется геополитическое положение страны в Центральной Азии, приоритетные направления международного сотрудничества и инициативы, направленные на обеспечение устойчивого развития. Особое внимание уделяется роли внешней политики Узбекистана в обеспечении региональной безопасности, экономической интеграции и реагировании на глобальные вызовы.

Ключевые слова: Узбекистан, Россия, Китай, США, внешняя политика, региональная безопасность, глобальные проблемы, Центральная Азия, международное сотрудничество.

UZBEKISTAN'S FOREIGN POLICY IN THE CONTEXT OF REGIONAL AND GLOBAL ISSUES

Annotation

This article examines Uzbekistan's foreign policy in the context of regional and global challenges. It analyzes the country's geopolitical position in Central Asia, its priority areas of international cooperation, and initiatives aimed at ensuring sustainable development. Special attention is given to Uzbekistan's role in promoting regional security, economic integration, and responding to global challenges.

Keywords: Uzbekistan, Russia, China, USA, foreign policy, regional security, global challenges, Central Asia, international cooperation.

Kirish. 1991-yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida O'zbekiston mustaqil davlat sifatida shakllana boshladi. Bu tarixiy voqea bilan birga mamlakat oldida ichki va tashqi legitimlikni ta'minlash kabi dolzarb va murakkab vazifalar yuzaga keldi. Ichki siyosiy maydonda hokimiyat uchun kurashning kuchayishi, turli ijtimoiy qatlamlar orasidagi norozilik kayfiyatining ortishi, shuningdek, ayrim guruhlar o'rtasida mavjud bo'lgan ziddiyatlar yangi davlatdan aniq strategik yo'nalish belgilashni hamda tezkor va puxta o'ylangan siyosiy qarorlar qabul qilishni talab etardi.

Tashqi siyosat yo'nalishida esa xalqaro maydonda o'z o'rnini topish, rivojlangan mamlakatlar bilan teng huquqli aloqalarni yo'lga qo'yish, xalqaro tashkilotlarga to'laqonli a'zo bo'lish kabi muhim vazifalar turar edi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston tashqi siyosatda ehtiyotkor va muvozanatli yo'l tutdi. Ko'plab manbalarda qayd etilganidek, bu davrda mamlakat asosan bir yo'nalishli (bir vektorli) tashqi siyosatni afzal ko'rди. Ayrim holatlarda esa, qo'shni davlatlar bilan munosabatlarda ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelgani kuzatildi. Bu jarayonda geosiyosiy muhit, ichki siyosiy barqarorlik va iqtisodiy mustahkamlash ustuvor yo'nalishlar sifatida qaraldi.

O'sha vaqtlarda O'zbekiston tashqi siyosatda, asosan, Rossiya Federatsiyasi bilan yaqin hamkorlikka urg'u berdi. Bu holat, bir tomondan, sobiq Ittifoq respublikalari bilan saqlanib qolgan iqtisodiy, transport-logistika aloqalarining uzviy

bog'liqligi bilan izohlanar edi. Ikkinchi tomondan esa, mintaqaviy xavfsizlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlash zarurati bunday yo'nalishni tanlashga asos bo'ldi.

Shuningdek, O'zbekiston tashqi siyosatda ehtiyotkorlik bilan harakat qilganining sabablari bir qator muhim omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, mustaqillikdan so'ng yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ishsizlik darajasining ortishi va yangi konstitutsiyaviy tizimga moslashuv jarayoni mamlakatda ichki siyosiy barqarorlikni ta'minlash zaruratini keltirib chiqardi. Ikkinchidan, Afg'oniston bilan geografik yaqinlik va butun Markaziy Osiyo mintaqasida diniy-ekstremistik harakatlarning faollashuvi O'zbekistonni tashqi xavfsizlik tahdidlariga nisbatan sergak bo'lishga majbur qildi. Uchinchidan, global va mintaqaviy kuchlar – xususan, Rossiya, Xitoy va AQSh bilan muvozanatli va ehtiyotkor aloqalarni yo'lga qo'yish orqali geosiyosiy barqarorlikni saqlab qolish tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi dastlabki tashqi siyosati ehtiyotkorlik, muvozanat va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan bo'ldi. Bir vektorli siyosat boshlang'ich davr uchun zarur strategiya sifatida xizmat qilgan bo'lsa-da, keyinchalik 2016-yilda Shavkat Mirziyoyevning Prezident etib saylanishi bilan yana jonlangan mamlakat tashqi siyosati ta'sirchan natijalarni ko'rsatib, ko'p vektorli siyosatga o'tish ehtiyoji yuzaga keldi. Bugungi kunda O'zbekiston o'z tashqi siyosatini yanada ochiq, faol va

pragmatik yo'nalishda davom ettirmoqda. Bu esa mamlakatning mintaqadagi roli va global miqyosdagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtidorga kelgan ilk kunlardan boshlab birinchi navbatda Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona aloqalar va ahil qo'shnichilik rishtalarini qayta tiklashga kirishdi. Yangi mintaqaviy tashqi siyosatning rasmiy deklaratsiyasini Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida e'lon qildi, bu yerda O'zbekistonning tashqi siyosatidagi ustuvor mintaq Markaziy Osiyo ekanligini va qo'shni davlatlar bilan susaygan mintaqaviy aloqalarni yanada kuchaytirishini ta'kidladi. Pragmatizm, ochiqlik va o'zaro manfaatli munosabatlarni shiorlari ostida yangi rahbariyat o'zaro munosabatlarni tiklashga kirishdi[1].

Bugungi kunda besh davlat rahbarlarining siyosiy konsolidatsiyasi natijasida Markaziy Osiyo o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro manfaatli hamkorlik makoniga aylangan. Mintaqa tobora barqaror va izchil taraqqiyot yo'liga chiqib, yuzaga kelayotgan tahdid va xatarlarga mustaqil ravishda qarshi tura oladigan darajaga yetmoqda. Shu bilan birga, u iqtisodiy va investitsiyaviy faollik markaziga aylanib bormoqda.

Shuni unitmaslik kerak-ki Markaziy Osiyo O'zbekiston tashqi siyosatining o'zagi bo'lib qolmoqda, chunki mintaqaviy barqarorlik mamlakat iqtisodiyoti, xavfsizligi va xalqaro obro'siga bevosita ta'sir qiladi. Uning markaziy joylashuvi savdo yo'llari, bozorlar va suv resurslariga kirish uchun mustahkam qo'shnichilik munosabatlarini zarur qiladi. O'zbekiston, shuningdek, mintaqani iqtisodiy o'sish, mintaqaviy yetakchi sifatidagi mavqei mustahkamlash uchun transchegaraviy infratuzilma va energetika loyihalarini faol rivojlantiruvchi poydevor sifatida ko'radi. Xavfsizlik asosiy omil hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi barqarorlik, ayniqsa, Rossiya va Xitoy kabi yirik davlatlar o'rtasida o'sib borayotgan geosiyosiy raqobat sharoitida milliy manfaatlarni himoya qilishda muhim ahamiyatga ega[2].

An'anaviy tashqi siyosat tamoyillariga ko'ra, O'zbekiston siyosiy yoki harbiy ehtiyojlar bois hech bir xorijiy davlatga nomutanosib darajada qaram bo'lib qolmaslikka intiladi. Hukumat boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipiga qat'iy amal qiladi, harbiy ittifoqlar yoki bloklarga qo'shilmaydi, o'z harbiy qismlarini xorijiy hududlarga joylashtirmaydi va o'z hududida xorijiy harbiy bazalarga ruxsat bermaydi. O'zbekistonning tashqi siyosati Konstitutsiyada, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida", "Mudofaa to'g'risida"gi qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan norma va tamoyillarga asoslanadi. Shuningdek, u O'zbekistonning Harbiy doktrinasiga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tamoyillariga, O'zbekiston Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnoma va bitimlardan kelib chiqadigan majburiyatlarga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi PF-158-son Farmoni bilan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi qabul qilindi. Strategiyaning beshinchi y o'nalishi — "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni davom ettirish — bo'lib, quyidagilarni nazarda tutadi: tashqi siyosatni xalq va davlat manfaatlarini asosida yuritish, Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish, vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash, Qurolli Kuchlar salohiyatini oshirish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va xorijiy davlatlar bilan do'stlikni rivojlantirish.

Mazkur yo'nalish doirasida belgilangan maqsad va vazifalar Yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyotini

ta'minlashga, shuningdek, xalqaro maydonda uning nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Rossiya bilan hamkorlikda o'z suverenitetiga tahdid solishi mumkin bo'lgan xavfsizlik sohasidagi aloqalardan voz kechadi. Shu bilan birga, mamlakat Xitoy va boshqa davlatlar bilan hamkorlikni kengaytirmoqda, biroq bu jarayon milliy mustaqillik yoki ichki siyosiy barqarorlik hisobiga amalga oshirilmayapti.

O'z o'rnida Rossiya hukumati Toshkent Xitoy bilan aloqalarini kengaytirayotgan bir paytda ham O'zbekiston bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalarni faollashtirishga harakat qildi. Masalan, Moskva O'zbekistondan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOf) va Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (ODKB) bilan aloqalarini kuchaytirishni istaydi. O'zbekiston Moskva boshchiligidagi ushbu mintaqaviy tashkilotlarda kuzatuvchi maqomiga ega, ammo Rossiya oxir-oqibat to'liq a'zo bo'lishiga umid qilmoqda. O'rtada Rossiya qurol savdosi va O'zbekiston qurolli kuchlari bilan qo'shma mashg'ulotlar sonini oshirdi. Aksincha, Rossiya hukumati O'zbekistonning Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO) bilan aloqalarini cheklashga intiladi.

Bundan tashqari, Rossiya O'zbekistonni uning hududi orqali o'tadigan ko'plab transport quvurlari tufayli Moskvaning Markaziy, Sharqiy va Janubiy Osiyo bilan iqtisodiy va energetika aloqalarini kengaytirish rejalarida asosiy omil sifatida qabul qiladi.

1991-yil avgust oyida O'zbekiston Sovet Respublikasi mustaqil davlat bo'lganidan so'ng, Xitoy dastlab O'zbekistondagi ko'p sonli uyg'ur aholisining XXR hukumatiga tahdid solishining oldini olishga ustuvor ahamiyat berdi. Xitoy kompaniyalari O'zbekiston va boshqa mamlakatlardan tabiiy gazni O'zbekiston hududi orqali import qilish uchun infratuzilmani rivojlantirishi natijasida iqtisodiy maqsadlar vaqt o'tishi bilan yanada muhim bo'ldi.

Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlariga qaraganda ko'proq iste'molchiga ega bo'lgan O'zbekistonga XXR sarmoyasining o'sishi ham mamlakatning Xitoyning tijorat hamkori sifatidagi qiymatini oshirdi. Pekin Xitoyini Janubiy Kavkaz, Yaqin Sharq va Yevropa bilan bog'laydigan sharq-g'arbiy tranzit yo'lagi sifatida O'zbekiston salohiyatini kengaytirish uchun o'zining "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi (BRI) va boshqa loyihalardan foydalanishga intiladi[3].

Bugungi kunga kelib AQShning ham Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan avalgiday yuqoridan pastga emas balki, pastdan yuqoriga siyosatini qo'llashni ma'qul ko'rmoqda. Bir vaqtlar AQSh mintaqadagi ayrim respublikalarni inson huquqlarini buzganlikda ayblagandan so'ng G'arb va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi aloqalar sovuqlashdi. Natijada, ularni ko'p vektorli tashqi siyosatdan voz kechib, avtoritarizmni faol qo'llab-quvvatlovchi Rossiya va Xitoyga yaqinlashtirdi.

Markaziy Osiyoning ikki yirik davlatida sodir bo'lgan dinamik o'zgarishlar, xususan, Qozog'iston va O'zbekistondagi siyosiy islohotlar va Ukraina inqirozi fonida Rossiya nufuzining zaiflashishi AQShga mintaqada o'z obro'sini qaytarish uchun imkoniyat ochadi. Amerikaning Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosatidagi so'nggi o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, Qo'shma Shtatlar ushbu muhim palladan unumli foydalanish niyatida va o'zining avvalgi demokratik yondashuvidan ko'ra pragmatik munosabatlarga ustunlik beradi[4].

Mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, barqaror rivojlanishni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2018-yildan buyon Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Ushbu format mintaqaviy hamkorlik arxitekturasining tayanch tuzilmasi sifatida xizmat qilib, unda muhim siyosiy qarorlar

qabul qilinadi hamda mintaqamamlakatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari belgilab olinadi.

2024-yil 9-avgust kuni Ostona shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oltinchi maslahat uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo mintaqasini o'rab turgan geosiyosiy muammolarga to'xtalar ekan, "Markaziy Osiyo o'zining geosiyosiy mavqei tufayli global ishonch inqirozi va mojarolar avj olishining salbiy oqibatlarini boshdan kechirmoqda. Ukraina va Yaqin Sharqda sodir bo'layotgan voqealar mintaqaning barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Umuman olganda, mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish va uzoq muddatli hamkorlik kun tartibini boyitish maqsadida Maslahat uchrashuvlari formatini yanada takomillashtirish yo'llarini birgalikda ko'rib chiqish vaqti keldi, deb hisoblayman"[5] – deb ta'kidlab o'tdi.

O'zbekiston Rossiya–Ukraina urushida neytral pozitsiyani egallab, harbiy harakatlarni to'xtatishga doimiy chaqirib kelmoqda. Hukumat tinchlik tashabbuslari bilan chiqmagan bo'lsa-da, Rossiyaning Gruziya (2008), Qrim

(2014) va Sharqiy Ukraina (2022) hududlarini anneksiya qilishini rasman tan olmagan.

O'zbekiston yangi tashqi siyosatini mintaqaviy integratsiya, global iqtisodiy integratsiya hamda muvozanatli diplomatik strategiya orqali shakllantirmoqda. Mintaqadagi barqarorlik, infratuzilmaviy rivojlanish, transport yo'llari, global sheriklik — bular barchasi O'zbekistonning suveren va hokimiyatni mustahkamlash siyosatini yoritadi. Prezident Mirziyoyevning multivektor yondashuvi O'zbekistonni mintaqaviy lider sifatida yanada mustahkam o'ringa olib chiqmoqda.

Markaziy Osiyo — hali to'liq ro'yobga chiqmagan ulkan salohiyat va imkoniyatlarga ega mintaqahisoblanadi. Mintaqada barqaror rivojlanish, xavfsizlik va farovonlikni ta'minlash barcha davlatlar uchun umumiy va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ustuvor vazifadir. Bugungi kunda Markaziy Osiyo respublikalari bu haqiqatni chuqur anglab, o'zaro hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bu esa mintaqaviy integratsiya sari tashlangan muhim qadamdir.

ADABIYOTLAR

1. Firdavs Kobilov. 2025. From geopolitical pendulum to regional player: Uzbekistan's regional foreign policy following the leadership change in 2016. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/02634937.2025.2482186#d1e117>
2. Rasul Kospanov. 2025. Central Asia in Uzbekistan's Foreign Policy Strategy. <https://nacanalytica.com/en/blog-2/474-central-asia-in-uzbekistan%E2%80%99s-foreign-policy-strategy.html>
3. Richard Weitz. 2025. Sino-Russian Interactions Regarding Uzbekistan. <https://www.hudson.org/security-alliances/sino-russian-interactions-regarding-uzbekistan-richard-weitz>
4. Otabek Akromov. 2024. The US Approach Towards Central Asia Revisited. <https://hagueresearch.org/the-us-approach-towards-central-asia-revisited/>
5. Mirshohid Aslanov va Otabek Akromov. 2024. At Astana Leaders' Summit, Uzbekistan's President Highlights Ambitions to Deepen Regional Integration. <https://thediplomat.com/2024/08/at-astana-leaders-summit-uzbekistans-president-highlights-ambitions-to-deepen-regional-integration/>